

UO‘K(UDC, УДК): 82-1/-9

**SHARQ VA G‘ARB JAHON ADABIYOTIDA EPISTOLYAR JANR<sup>4</sup>*****Raximova Dilnoza Masharipovna****Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali,**Ingliz tili kafedrası assistenti,**Urganch, O‘zbekiston**E-mail: [rrakhimovadilnoza@gmail.com](mailto:rrakhimovadilnoza@gmail.com)**ORCID ID: 000900209823807***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Sharq va G‘arb adabiyotida epistolyar janrning tarixiy shakllanishi, estetik va ijtimoiy-falsafiy mazmuni qiyosiy tahlil etilgan. Maqolada qadimiy Xitoy, Hindiston, Fors, Yapon hamda Yevropa adabiyoti namunalari asosida maktub shaklidagi asarlarning badiiy va ma‘naviy xususiyatlarini yoritadi. Tadqiqotda tarixiy-tipologik, madaniy-komparativ va manbashunoslik tahlil metodlari qo‘llanilgan. Sharq adabiyotida epistolyar janrning axloqiy, sufiylik va ma‘naviy-ruhiy g‘oyalarni ifoda etish vositasi sifatida shakllangani, G‘arb adabiyotida esa u shaxsiy tajriba va falsafiy tafakkurni ifodalovchi mustaqil badiiy janr darajasiga ko‘tarilgani ko‘rsatib o‘tiladi. Xitoy adabiyotida Su Shi, Fors adabiyotida Jaloliddin Rumiy, Yevropa adabiyotida Seneka, Russo, Richardson, Gyote singari ijodkorlarning epistolyar merosi misolida janrning ko‘p qirrali tabiati yoritiladi. Bugungi raqamli davrda ham epistolyar janrning o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini, elektron xatlar, blog va onlayn yozishmalar shaklida yangi zamonaviy ko‘rinishlar kasb etayotganini ta‘kidlanadi. Shuningdek, maqolada epistolyar janrning til, uslub va estetik ifoda vositalaridagi erkinlik, samimiylik hamda muallif shaxsiyatining to‘liq namoyon bo‘lishi kabi jihatlar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida epistolyar janr insoniyatning ruhiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutuvchi, adabiy jarayonning ajralmas qismi sifatida e‘tirof etiladi.

**KALIT SO‘ZLAR**

Epistolyar janr, noma, Sharq adabiyoti, G‘arb adabiyoti, maktub, tarixiy rivojlanish, falsafiy maktublar, madaniy meros, kundalik yozishmalar, Xitoy adabiyoti, Yapon adabiyoti, Yevropa adabiyoti, axloqiy qadriyatlar.

**Received:** October 1, 2025**Accepted:** October 12, 2025**Available online:** November 16, 2025<sup>4</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Raximova D. Sharq va g‘arb jahon adabiyotida epistolyar janr. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 56-64.

## THE EPISTOLARY GENRE IN EASTERN AND WESTERN WORLD LITERATURE

***Rakhimova Dilnoza Masharipovna***

*Assistant Teacher of Department of English Language,  
Urgench Branch of Tashkent Medical Academy*

*Urgench, Uzbekistan*

*E-mail: [rrakhimovadilnoza@gmail.com](mailto:rrakhimovadilnoza@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0020-9823-807X*

---

### ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the historical development, aesthetic and socio-philosophical content of the epistolary genre in Eastern and Western literature. The article highlights the artistic and spiritual features of works in the form of letters based on examples of ancient Chinese, Indian, Persian, Japanese, and European literature. The study employs historical-typological, cultural-comparative, and source analysis methods. It demonstrates that in Eastern literature, the epistolary genre evolved as a means of expressing moral, Sufi, and spiritual ideas, while in Western literature, it rose to the status of an independent artistic genre conveying personal experience and philosophical thought. The multifaceted nature of the genre is highlighted through the epistolary heritage of creators such as Su Shi in Chinese literature, Jalaluddin Rumi in Persian literature, and Seneca, Rousseau, Richardson, and Goethe in European literature. The article emphasizes that the epistolary genre remains significant even in today's digital age, taking on new modern forms through electronic letters, blogs, and online correspondence. Furthermore, the article scientifically analyzes aspects of the epistolary genre such as freedom and sincerity in language, style, and aesthetic expression, as well as the full manifestation of the author's personality. The research concludes by recognizing the epistolary genre as an integral part of the literary process, playing a crucial role in humanity's spiritual, social, and cultural development.

---

### KEY WORDS

Epistolary genre, letters, Eastern literature, Western literature, letter genre, historical development, philosophical letters, cultural heritage, daily correspondence, Chinese literature, Japanese literature, European literature, moral values.

## ЭПИСТОЛЯРНЫЙ ЖАНР В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ВОСТОК И ЗАПАД

*Рахимова Дилноза Машиариповна*

*ассистент кафедры английского языка,*

*Ургенчский филиал*

*Ташкентской медицинской академии,*

*Ургенч, Узбекистан*

*E-mail: [rrakhimovadilnoza@gmail.com](mailto:rrakhimovadilnoza@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0020-9823-807X*

### АННОТАЦИЯ

В данной статье проведен сравнительный анализ исторического становления, эстетического и социально-философского содержания эпистолярного жанра в литературе Востока и Запада. В статье на основе образцов древнекитайской, индийской, персидской, японской и европейской литератур освещаются художественные и духовные особенности произведений, созданных в форме писем. В исследовании применены историко-типологический, сравнительно-культурологический и источниковедческий методы анализа. Отмечается, что в восточной литературе эпистолярный жанр сформировался как средство выражения духовно-этических идей, в том числе и суфийских, тогда как в западной литературе он эволюционировал до уровня самостоятельного литературного жанра, выражающего личный опыт и философские размышления автора. Многогранная природа жанра раскрывается на примере эпистолярного наследия таких авторов, как Су Ши в китайской литературе, Джалаладдин Руми в персидской литературе, Сенека, Руссо, Ричардсон, Гёте в европейской литературе. Автор подчеркивает, что даже в современную цифровую эпоху эпистолярный жанр не утратил своего значения, приобретая новые актуальные формы в виде электронных писем, блогов и онлайн-переписки. Также в статье на научной основе анализируются такие характеристики эпистолярного жанра, как свобода, искренность в языке, стиле и средствах эстетического выражения, а также полнота проявления в нем личности автора. В результате исследования эпистолярный жанр признается неотъемлемой частью литературного процесса, играющей важную роль в духовном, социальном и культурном развитии человечества.

### KEY WORDS

Эпистолярный жанр, письма, восточная литература, западная литература, жанр писем, историческое развитие, философские письма, культурное наследие, ежедневная переписка, китайская литература, японская литература, европейская литература, моральные ценности.

## KIRISH

Adabiyotda maktub janri, ya'ni epistolyar janr – yozma muloqot shakli bo'lib, u orqali muallif o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, voqealar yoki hodisalarni xatlar orqali ifoda qiladi. Ushbu janr ko'plab xalqlarning adabiyotida qadimdan mavjud bo'lib, o'zining o'ziga xos xususiyatlari, tarixi va rivojlanish bosqichlari bilan ajralib turadi.

Sharq va g'arb dunyosida epistolyar janr o'ziga xos o'rin egallagan. Sharq adabiyotida, xususan, Xitoy, Yaponiya va Markaziy Osiyoda maktub yozish an'analari ko'p yuz yillar davomida rivojlanib, madaniy va ma'naviy merosga aylangan. G'arbda esa, ayniqsa Yevropa mamlakatlarida, epistolyar janrning rivojlanishi XV-XVIII asrlarda o'z cho'qqisiga yetgan. Ingliz, fransuz, nemis adabiyotlarida bu janr ko'plab ajoyib namunalarga ega bo'lgan.

Bugungi kunda, texnologiya taraqqiyoti tufayli maktub yozish odati sekin-asta yo'qolib bormoqda. Ammo epistolyar janr tarixiy, madaniy va adabiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, insoniyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Shu sababli, sharq va g'arb adabiyotlaridagi epistolyar janrni chuqur o'rganish zarur.

## ASOSIY QISM

Epistolyar janr, ya'ni maktub shaklida yozilgan badiiy asarlar janri, insoniyat madaniyatining eng qadimiy yozma muloqot shakllaridan biridir. Bu janr insonlarning o'zaro fikr almashinuvi va his-tuyg'ularini bevosita ifoda etish imkonini yaratgan. Epistolyar janrning asosiy xususiyati shundaki, u o'quvchi va muallif o'rtasida samimiy shaxsiy muloqotni tashkil etadi. Shu sababli, bunday asarlar ko'pincha o'z ichiga shaxsiy tajribalar, ichki kechinmalar, falsafiy mulohazalar va ijtimoiy voqealarni oladi. Epistolyar janr insoniyat tarixida yozish texnologiyasining rivojlanishi bilan yaqin bog'liq. Dastlab oddiy yozishmalar sifatida yuzaga kelgan maktublar, keyinchalik ma'lum badiiy shaklga keldi (Урнов Д.М., 1975, 918). Qadimgi Misr, Yunon, Rim va Hindiston kabi qadimiy madaniyatlarda maktublar nafaqat oddiy yozishmalar, balki badiiy va falsafiy mazmunga ega asarlar sifatida ham keng tarqaldi. Epistolyar janrning o'ziga xos

jihatlaridan biri – u muallifning shaxsiy ovozi aks ettiradi. (Гельб И.Е., 1982, 24). Maktublarda adib o‘z fikrlarini bevosita o‘quvchiga yo‘llaydi, bu esa badiiy matnning samimiyligi va ta’sirchanligini oshiradi. Shu bilan birga, epistolyar janr dialog va monolog elementlarini o‘zida mujassam etadi, bu esa uni boshqa jarlardan ajratib turadi.

*Sharq adabiyotida* epistolyar janr ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, u turli xalqlarning madaniyati va falsafasi bilan chambarchas bog‘liq. Xitoy, Hindiston, Fors va Yapon adabiyotlarida maktublar san’ati o‘ziga xos rivojlandi.

2.1 Xitoy epistolyar janri: xitoyda epistolyar janr qadimdan mashhur bo‘lib, ayniqsa, Tang sulolasi davrida (618-907 yillar) uning gullab-yashnashi kuzatiladi. Shu davrning mashhur shoir va faylasufi Su Shi (Su Dongpo) maktublari o‘zining falsafiy chuqurligi va estetik go‘zalligi bilan ajralib turadi. U maktublarda tabiat, hayot, inson va jamiyat haqida chuqur mulohazalar bildirgan (Поньрко Н.В., 1992, 3).

Xitoy epistolyar janrining o‘ziga xosligi – uning yozilishida estetik tamoyillar, badiiy uslublar va falsafiy g‘oyalar uyg‘unlashganidir. Shu boisdan, maktublar nafaqat shaxsiy fikr almashinuvi vositasi, balki badiiy asarlar sifatida ham qabul qilinadi.

2.2 Hindiston va Fors epistolyar janri. Hindiston va Fors madaniyatlarida epistolyar janr ko‘pincha diniy va ma’naviy mavzular bilan bog‘liq bo‘lib, so‘fiylik falsafasining ta’siri ostida shakllangan. Bu mamlakatlarda maktublar insonning ichki olami, Allohga bo‘lgan muhabbat va axloqiy qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qilgan. Masalan, Fors shoiri Jaloliddin Rumining maktublari, uning sufiylik falsafasini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maktublar orqali u o‘quvchiga ma’naviy yuksalish va hayot haqidagi chuqur tushunchalarni yetkazishga intilgan.

2.3 Yapon epistolyar janri: Yaponiyada epistolyar janri VIII asrdan boshlab rivojlanib, asosan, oilaviy va do‘stona munosabatlarni aks ettirgan. Muromachi davida maktub yozish san’ati aniq qoidalarga asoslangan va bu jarayon madaniy jihatdan juda muhim bo‘lgan. Yapon maktublarining o‘ziga xosligi – ularning

qisqalik va aniqlikda, shuningdek, ichki kechinmalarni chuqur ifodalashda namoyon boʻladi. Ushbu janr orqali yozuvchilar inson ruhining nozik jihatlarini, tabiat bilan uygʻunlikni va insoniy munosabatlarni yoritgan.

***Gʻarb adabiyotida*** epistolyar janr Rim va Yunon madaniyatlaridan boshlab rivojlanib, keyinchalik oʻrta asr va yangi davrda yanada kengroq shakllangan.

3.1 Antik Rim va Yunon davri. Antik Rimda epistolyar janr siyosiy, huquqiy va falsafiy mazmun bilan toʻlib-toshgan. Faylasuflar va siyosatchilar maktublar orqali oʻz fikrlarini boshqalarga yetkazgan. Masalan, Rim faylasufi Senekaning maktublari axloqiy va falsafiy masalalarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Sitseron esa siyosiy va ijtimoiy muammolarni maktublar orqali oʻrganib, epistolyar janrini badiiy janr sifatida yanada rivojlantirdi.

3.2. Oʻrta asrlar. Oʻrta asrlarda epistolyar janr koʻproq diniy va rasmiy yozishmalar shaklida davom etgan. Xususan, Katolik cherkovining rasmiy maktublari, monastirlar yozishmalari bu davrning asosiy manbalaridan boʻldi. Bu davrda maktublar koʻpincha diniy falsafa, axloqiy qoidalar va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda xizmat qilgan. Shu bilan birga, epistolyar janr orqali ilm-fan va madaniyat rivojiga ham taʼsir koʻrsatildi.

3.3. Yangi davr va maʼrifat asri: XVII va XVIII arlarda Yevropada epistolyar janr mustaqil badiiy janrga aylandi. Maʼrifat asrining yozuvchilari J.J. Russo, M. de Sevigne va J. Svitf maktublar orqali oʻz zamonasining ijtimoiy va maʼnaviy muammolarini yoritdilar. Ushbu davrda maktub yozish sanʼati juda rivojlandi, shaxsiy va ijtimoiy mavzular keng yoritildi. Maktublar orqali yozuvchilar oʻz fikrlarini keng auditoriyaga yetkazish imkoniga ega boʻldilar (Макогоненко Г.П., 1980, 13).

Epistolyar janrining badiiy jihatlari uning oʻziga xos shaklida, samimiylikka va ifoda uslubida namoyon boʻladi. Maktublarda muallif oʻz his-tuygʻularini bevosita va erkin ifodalashi mumkin, bu esa janrni boshqa badiiy janrlardan farq qiladi. Janrda dialog va monolog elementlari uygʻunlashadi: muallif oʻquvchiga bevosita murojaat qilib, shaxsiy fikr va kechinmalarini yetkazadi. Shu boisdan epistolyar janrda ichki kechinmalar, hayotiy tajribalar, maʼnaviy izlanishlar kuchli

ifodalanadi (Макогоненко Г.П., 1980, 13). Bundan tashqari, epistolyar janrda adabiy tilning erkinligi, badiiy obrazlarning ko‘pligi va uslubiy xilma-xilligi ko‘zga tashlandi. Maktublar ko‘pincha shaxsiy ovoz va individual stilni namoyish etadi.

5. Epistolyar janrning ijtimoiy va madaniy ahamiyati: epistolyar janr insoniyat madaniyatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni yoritishda xizmat qiladi. Maktublar orqali muallif jamiyatdagi voqea va hodisalar haqida o‘z fikrini bildiradi, shaxsiy va jamoaviy tajribalarni aks ettiradi. Shuningdek, epistolyar janr tarixiy manba sifatida ham muhimdir. Tarixchilar maktublardan o‘sha davr ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida ko‘p ma’lumot oladilar. Bu janr orqali insoniyatning ichki ruhiyati va jamiyatning turli qatlamlari yoritiladi. Madaniy ahamiyat jihatidan epistolyar janr milliy til va madaniyatni boyitishda muhim rol o‘ynaydi. U turli xalqlarning fikr va urf-odatlarini, qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi.

6. Hozirgi davrda epistolyar janr va uning yangi shakllari. Bugungi kunda texnologik taraqqiyot natijasida an’anaviy maktub yozish madaniyati susaygan bo‘lsa-da, epistolyar janr o‘z o‘rini yo‘qotmagan. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va boshqa raqamli kommunikatsiya vositalari epistolyar janrning yangi shakllarini yaratmoqda. Hozirgi adabiyotda ham maktublar shaklida yozilgan badiiy asarlar mavjud bo‘lib, ular zamonaviy mavzularni yoritadi va eski epistolyar an’anani davom ettiradi.

Epistolyar janr – bu insoniyat madaniyatining qadimiy va boy meroslaridan biri bo‘lib, u sharq va g‘arb adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Maktub shaklidagi badiiy asarlar insonning ichki dunyosini, kechinmalari va jamiyat bilan munosabatlarini bevosita, samimiy tarzda ifodalash imkonini bergan. Sharq adabiyotida bu janr ko‘proq axloqiy-ma’naviy, sufiylik va ijtimoiy mavzularni yoritgan bo‘lsa, G‘arbda epistolyar janr adabiy eksperimentlar va falsafiy mulohazalar maydoniga aylangan. Xitoyda “shui”, Yaponiyada “sekantai”, G‘arbda esa “familiar letter” kabi shakllarda namoyon bo‘lgan maktub janri har bir mintaqaning madaniyati va estetik qarashlarini o‘zida aks ettirgan. XVIII asrda Yevropa adabiyotida epistolyar janr yuksak cho‘qqilarga erishib, alohida badiiy janr

sifatida shakllandi. Xususan, Samuel Richardson, Russo, Sevigne, Gyote kabi yozuvchilarning maktublari nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va madaniy hayotning ifodasi bo‘lib xizmat qilgan. Sharq adabiyotida esa Navoiy, Jomiy, Bobur kabi mutafakkirlar tomonidan yozilgan maktublar noma janrining eng go‘zal namunalarini tashkil etadi. Bugungi kunda epistolyar janr an’anaviy shaklda keng tarqalmagan bo‘lsa-da, uning estetik va tarbiyaviy ahamiyati saqlanib qolgan. Zamonaviy texnologiyalar ta’sirida yangi shakllarda – elektron maktublar, bloglar, ochiq xatlar ko‘rinishida mavjudligini davom ettirmoqda. Shunday qilib, epistolyar janr o‘zining tarixiy, madaniy va adabiy ahamiyati bilan adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shgan, insoniyatning ruhiy dunyosini, fikrini va davr muhitini ifodalashga xizmat qilgan noyob janrlardan biridir.

### **XULOSA**

Epistolyar janr Sharq va G‘arb adabiyotining badiiy tafakkur tarixida inson qalbining eng samimiy va bevosita ifodasini mujassam etgan noyob janrlardan biridir. Uning shakllanishi insoniyat madaniyatining yozma muloqot bilan bog‘liq ilk bosqichlariga borib taqaladi. Sharqda bu janr axloqiy-ma’naviy tarbiya, do‘stlik va sufiylik g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, G‘arbda u shaxsiy fikr, ichki kechinma va falsafiy tafakkurni badiiy shaklda ifodalash vositasiga aylangan. Epistolyar janrning badiiy mohiyati – inson ruhiyati, zamon ruhi va muallif tafakkurining uyg‘un ifodasidadir. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, jumladan elektron maktublar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar, ushbu janrning yangi shakllarini yuzaga keltirib, uni hozirgi davr madaniy muloqotining ham muhim qismi sifatida davom ettirmoqda. Shu boisdan epistolyar janr nafaqat tarixiy adabiyotning, balki bugungi adabiy-estetik tafakkurning ham tirik merosidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Урнов, Д. М. Эпистолярная литература. Краткая литературная энциклопедия. – М., 1975. – Т. 8. – С. 918;
2. Макогоненко, Г. П. Письма русских писателей XVIII века и литературный процесс. Письма русских писателей XVIII века. – Л.: Наука, 1980. – С. 13;



3. Тимофеев, Л. Д. Эпистолярная литература. Энциклопедический словарь [Гранат]. 7-е изд. – М.: ОГИЗ, 1948. – Т. 54. – С. 417-418;
4. Крупчанов Л.С. Эпистолярная форма. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – С. 469;
5. Поньрко, Н. В. Эпистолярное наследие Древней Руси, XI-XIII вв. Исслед., тексты, пер. – СПб.: Наука. Санкт-Петербург. отд.-ние, 1992. – С. 3.
6. Сенека. Нравственные письма к Луцилию. 1977.
7. Соколянский, М.Г. Западноевропейский роман эпохи Просвещения (проблемы типологии). – Киев, Одесса, 1983. – С. 78
8. Сиповский В. В. Очерки из истории русского романа. – СПб., 1909–1910. – Т. 1, вып. 2. – С. 399.
9. Тесцов С. В. Вопросы изучения западноевропейской эпистолографии XVII века. – 2018.

#### REFERENCES

1. Urnov D. M. (1975). Epistolary Literature. A short literary encyclopedia. Vol. 8.
2. Makogonenko, G. P. (1980). Letters of Russian Writers of the 18th Century and the Literary Process. Letters of Russian writers of the 18th century. L.: Science.
3. Timofeev L. D. (1948). Epistolary Literature. Encyclopedic Dictionary [Granate]. 7th ed. M.: OGIZ, Vol. 54.
4. Krupchanov L.S. (1974). Epistolary Form. Dictionary of Literary Terms. M.: Prosveshchenie.
5. Ponyrko, N. V. (1992). Epistolary Heritage of Ancient Rus', 11th-13th Centuries. Research, texts, trans. SPb.: Science. St. Petersburg.
7. Sokolyansky, M.G. (1983). Western European Enlightenment Novel (Problems of Typology). Kiev, Odessa.
8. Sipovsky V. V. (1909-1910). Essays from the History of the Russian Novel. – St. Petersburg. Vol. 1, issue. 2.
9. Testsov S. V. (2018). Issues of Studying 17th-Century Western European Epistolography.